

O‘ZLASHMA LEKSIK ELEMENT TUSHUNCHALARI

Beginmova Maqsuda

Qarshi davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqoladamizda o‘zbek tilining lug‘at boyligi, o‘zlashgan qatlam ,o‘zlashgan qatlam leksikasi haqida ma'lumotlar berilgan .

Kalit so‘zlar: lug‘at, o‘z qatlam, o‘zlashgan qatlam, rus tili, o‘zbek tili, fors tili,manba.

Har bir til asosan o‘z lug‘at boyligi va grammatik qurilishi asosida o‘z taraqqiyot qonunlari bo‘yicha o‘sib, takomillashib boradi. Bundan tashqari, xalqlar orasidagi iqtisodiy, madaniy, siyosiy aloqalar natijasida bir til qurilishiga xos birliklar (asosan lug‘aviy birliklar, qismangina fonetik va grammatik birliklar) ikkinchi tilga o‘tadi, shu tilga singib, uning boyligiga aylanadi.

Shu nuqtayi nazardan yondashib hozirgi adabiy o‘zbek tili lug‘at boyligida ikki qatlam ajratiladi:

- 1) o‘z qatlam,
- 2) o‘zlashgan qatlam.

O‘z qatlam deganda aslan shu tilniki bo‘lgan leksemalar va shular asosidagi yasallishlar, shuningdek o‘z affiks bilan boshqa til leksemalaridan yasallishlar tushuniladi. O‘zbek tili lug‘at boyligidagi eng qadimgi qism umumturkiy leksemalardan iborat. Bunday leksemalar ko‘pchilik turkiy tillarda hozir ham ishlatiladi.

Hozirgi o‘zbek tili lug‘at boyligida, ko‘pchilik turkiy tillar uchun umumiy bo‘lgan qismdan tashqari, o‘zbek tilining o‘z mustaqil taraqqiyoti natija sida paydo bo‘lgan qism ham mavjud. Buni, bir tomondan, o‘zbek tilining o‘zi doirasidagi yangi-yangi yasallishlarda ko‘rsak, ikkinchi tomondan, leksemalarning leksik ma'no taraqqiyoti natijalarida ko‘ramiz. Masalan, boshlang‘ich-, belgili-, yutuqli-, yonilg‘i-, yoqilg‘i-, yollanma-, yozuvchi- kabi leksemalar – o‘zbek tilining o‘z imkoniyatlari bilan yasalgan leksemalar.

Bulardan tashqari, boshqa tildan olingan leksemaga o'zbekcha affiksni qo'shib leksema yasash ham avj olgan. Masalan, jangchi-, xizmatchi-, traktorchi-, ekskavatorchi-, paroxodchilik- kabilarda leksema yasash asosi – boshqa til leksemasi, yasovchilar esa – o'zbek tiliniki. Buning aksi, ya'ni o'zbekcha leksemaga boshqa tilga xos morfemani qo'shib leksema hosil qilish ham uchraydi. Masalan, bebosh- (bevosh-), beish-, bilimdon-, tug'ruqxona- kabilar shu yo'l bilan yasalgan. O'zlashgan qatlamga xos leksemalarni o'z qatlam leksemalaridan ajratib olish hamma vaqt yengil bo'lavermaydi. Bularni o'zaro farqlashda ko'pinchaleksemalarning tovush tuzilishiga suyanib (ba'zan harfiy ifodasini ham hisob ga olgan holda) fikr yuritiladi.

Tovush tuzilishi jihatidan o'z qatlamga xos leksemalarning asosiy belgilari deb quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- 1) O'zbekcha tub leksemalar asosan bir bo'g'inli, qisman ikki bo'g'inli bo'ladi (uch bo'g'inli, hatto ikki bo'g'inli leksemalar tarixan hosila leksema bo'lib chiqadi);
- 2) Bir bo'g'inlilarda CVC turi asosiy o'rinni egallaydi, VC turi ikkinchi o'rinda, CV turi esa uchinchi o'rinda turadi;
- 3) Ikki bo'g'inli leksemalar ko'pincha ochiq bo'g'inlardan tuzilgan bo'ladi;
- 4) O'zbekcha leksemalar r, l, v, h tovushlari bilan boshlanmaydi;
- 5) O'zbekcha leksemalarda j sirg'aluvchi tovushi, h bo'g'iz tovushi (ayrim undov va tasvir birliklaridan tashqari) qatnashmaydi;
- 6) Leksemalarning oxiri e, u tovushi bilan tugamaydi (ayrim undov va tasvir birliklaridan tashqari);
- 7) Birinchi bo'g'indan keyingi bo'g'in ovoz tovush bilan boshlanmaydi;
- 8) Leksema boshlanishida, ko'pincha leksema oxirida ham ikki va undan ortiq konsonant qatorasiga kelmaydi (ost-, ust-, old-, ort- kabi bir necha leksema bundan mustasno);
- 9) Urg'u leksemashaklning odatda oxirgi bo'g'inida bo'ladi.

Grafik jihatdan o'zbekcha leksemalarda tutuq belgisi ishlatilmaydi.

Yuqorida sanalgan holatlarning aksi o'zlashgan leksemalarning asosiy belgilari deb

qaralishi mumkin. Leksemalarning mazmun jihati ham ularning o'z qatlamga yoki o'zlashgan qatlamga mansubligidan dalolat berib turadi. Ma'no tarmoqlanishi ko'pincha o'z qatlamga mansub leksemalarga xos bo'ladi; o'zlashgan lekse mada ko'p ma'nolilik voqe bo'lishi uchun bunday leksema tilda uzoq vaqt ya shashi, shu til lug'atiga singib ketishi kerak.

Bundan tashqari, hozirgi o'zbek tili lug'at boyligidagi o'z qatlamda aniq ma'noli leksemalar, o'zlashgan qatlamda esa mavhum ma'noli leksemalar ko'p va boshqalar.

O'zbek tiliga leksema o'zlashtirishning manbalari turli davrlarda turlicha bo'lgan. O'zbek tiliga leksema o'zlashtirishdagi qadimgi manbalar deb fors va arab tillari ko'rsatiladi; rus tilidan leksema o'zlashtirish bularga nisbatan ancha keyingi vaqtlarda sodir bo'la boshlagan. Fors, arab tillaridan leksema o'zlashtirish tarixan ko'p bo'lgan, hozir esa siyraklashgan. Hozirgi o'zbek tilida rus tilidan o'zlashtirishlar o'rnini bevosita g'arb tillarining o'zidan o'zlashtirish oldi: birja-, broker-, makler-, debitor-, kreditor- kabi. O'zlashgan leksemalar hozirgi adabiy o'zbek tili lug'atida salmoqli o'rin tutadi. Til taraqqiyotining borishi o'zlashgan qatlamning ayniqsa baynalmilal (internatsional) leksemalar hisobiga yana-da boyib borishini ko'rsatib turibdi. Umuman, keyingi vaqtlarda lug'atning boyish jarayonida o'z yasashdan ko'ra o'zlashtirish ustun bo'lib bormoqda. Chunki o'zlashtirish – o'z yasash ga nisbatan yengil yo'l. Jamiyat taraqqiyotining hozirgidek tez sur'atlar bilan borishi til amaliyotida ham har on hozirjavoblikni talab qilmoqda. Tillar orasida o'zlashtirishning faollasha borishiga asosiy sabab – shu Leksema o'zlashtirish bir tildan ikkinchi bir tilga bevosita leksema olish yo'li bilan voqe bo'ladi. Bu yerda ikki hodisani farqlash kerak: a) bir tilga ikkinchi bir tilning o'z leksemasi o'zlashadi, b) o'zlashtirilayotgan leksema o'z navbatida o'sha tilning o'zi uchun ham o'zlashma bo'ladi. Masalan, o'zbek tiliga rus tilining o'z leksemalari juda oz o'zlashgan; ko'pchilik leksemalar esa rus tiliga g'arb tillaridan o'zlashgan leksemalarga to'g'ri keladi. Rus tilidan o'zbek tiliga o'zlashgan, aslida ruscha leksemalarga stol-, pol- kabilarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

Rus tilidan o'zbek tiliga o'zlashgan, lekin aslida ruscha bo'lmagan leksemalar asosan baynalmilal leksemalarga to'g'ri keladi. Bular orasida gips-, diafragma-, dialekt-, kafedra-, komediya-, fizika-, grammatika-, planeta-, teatr- kabi yunoncha leksemalar, senzura-, deputat-, rektor-, dekan-, konsti tutsiya-, ekskursiya- kabi lotincha leksemalar, polkovnik-, rota-, metrika- kabi polyakcha leksemalar, vaxta-, soldat-, ofitser-, gastrol-, shtab-, shturman-, ka ter- kabi nemischa leksemalar, drap-, triko-, kashne-, kabinet-, kapitan-, artil leriya-, ataka-, general-, desant-, flot-, repertuar- kabi fransuzcha leksemalar, vokzal-, rels-, tramvay-, budjet-, futbol-, basketbol-, voleybol-, boks-, kross-, tort- kabi inglizcha leksemalar, balerina-, opera-, benzin-, bank-, karnaval kabi italyancha leksemalar mavjud. Bunday leksemalar o'zbek tiliga asosan rus tilidagi yozilishi va aytilishi bilan olingan; o'zbek tili nuqtayi nazaridan faqat ba'zi kichik o'zgartirishlarga yo'l qo'yilgan: otpusk- - otpuska-, relsı – rels kabi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek tili nafaqat o'z qatlam, balki o'zlashgan qatlam so'zlari hisobiga ham boyigan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Жомонов Р. Суз узлаштиришдаги асосий лисоний омиллар // Узбек тили ва адабиёти, 2014. -№ 5.
2. Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка: учебное пособие. /2-е издание, переработанное. - Москва: ФЛИНТА: Наука, 2012.
3. Ташматова, Г. Р. (2022). ПРОБЛЕМЫ ВНЕДРЕНИЯ ПРЕДМЕТНО-ЯЗЫКОВОГО ИНТЕГРИРОВАННОГО ОБУЧЕНИЯ (CLIL. *Academic research in educational sciences*, 3(3), 953-960.
4. Rafailovna, T. G. (2022). CHALLENGES OF IMPLEMENTING CLIL (CONTENT AND LANGUAGE INTEGRATED LEARNING). *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(3), 567-574.

5. Ташматова, Г. Р. (2021). Теоретическое обоснование предметно-языкового интегрированного подхода (CLIL) в преподавании. *Science and Education*, 2(12), 816-823.
6. Dilorom, I. (2021). Semantic-structural peculiarities of shakespearean neologisms. *Social Sciences, Humanities and Education Journal (SHE Journal)*, 2(2), 78-82.
7. Ismoilova, D. (2021). Pragmatic failure in the heterogeneous communication. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 4(9).
8. Ganieva, M. S. (2021). Socio-philosophical aspects of the study of the issue of gender and entrepreneurial woman in a new society. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(12), 441-445.
9. Ganieva, M. S. (2021). IN THE SOCIETY OF WOMEN–GIRLS INNOVATION-THE SOCIO-PHILOSOPHICAL ESSENCE OF ENTREPRENEURIAL ACTIVITY. *Scientific progress*, 2(8), 947-951.
10. Qizi, K. M. K., & Ugli, M. M. M. (2020). Teaching EFL (English as a foreign language) in kindergarten. *Проблемы современной науки и образования*, (3 (148)), 77-79.
11. Mirzayeva, D. (2021). PROVERBS AND SAYINGS AS A PRODUCT OF THE NATION'S COGNITIVE THINKING. In *Multidiscipline Proceedings of Digital Fashion Conference* (Vol. 1, No. 2).
12. Mirzaeva, D. (2021). THE ROLE OF PAREMIA IN THE SYSTEM OF NATIONAL CULTURAL HERITAGE. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 2(3).
13. Ikromjonovna, M. D. (2021). LINGVO-COGNITIVE AND LINGUCULTUROLOGICAL ASPECTS OF PROVERBS AND MATALS IN DIFFERENT SYSTEM LANGUAGES. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 10(3), 46-53.